


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhammadov, O.Q.Xasanova</b>	
So'z boyligi bilan ishlashda didaktik tamoyillarni joriy etish.....	5
<b>N.M.O'ranova, M.A.Qodirjonova</b>	
Talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning samarali usullari.....	9
<b>D.M.Begmatova</b>	
Individual yondashuv asosida talabalarda madaniy immunitetni rivojlantirish jarayonida foydalilaniladigan texnologiyalarni tanlash tamoyillari .....	14
<b>Kh.O.Jurayev D.Kh.Fayziyeva</b>	
The role of media competence in the work of a teacher .....	18
<b>D.G.Zaylobidinova</b>	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning nazariy jihatlari .....	22
<b>F.I.Sharipova</b>	
Tibbiyot oliygochlarda ingliz tilining akademik yozish o'qitish masalari .....	26
<b>M.A.Tuxtabayev</b>	
Janubiy Koreya ta'lif tizimida muhandislik kadrlarini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi.....	33
<b>S.R.Uraimov, M.Sh.Abdubabbov</b>	
Umumiylar mifik tablarida interaktiv trenajyorlardan foydalanish orqali jismoniy mashg'ulotlarni takomillashtirish.....	37
<b>S.R.Uraimov S.G.G'ofurov</b>	
Umumiylar mifik tablarida jismoniy tarbiya uchun innovatsion mobil ilova yaratish va uning samaradorligini o'rganish .....	41
<b>S.B.Qodirov</b>	
Yoshlarimiz ma'naviyati va intellektual salohiyatini oshirish ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari .....	46
<b>A.R.Saydullayeva</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarida ma'naviy ideallar vositasida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	50
<b>D.A.Abdusamiyev</b>	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida shaxs sifatida shakllanishi va uning mifik muhitiga moslashishi.....	55
<b>A.X.Gafforov</b>	
Maxsus fanlardan amaliy mashg'ulotlarni loyiha metodi asosida tashkil etishda raqamli ta'lif resurslarini qo'llash .....	59
<b>F.V.Xalilov</b>	
Ta'lifni raqamlashtirish sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish muammolari.....	63
<b>A.M.Mirzakulov, G.I.Yuldasheva</b>	
Analogik muhitda kinematik hodisalarining simulyatsiya modellarini yaratish va o'qitish metodikasi.....	67
<b>S.R.Toshboyeva, S.I.Usmonova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diagrammalar asosida berilgan ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.....	72
<b>M.E.Yulchiev</b>	
Psychological and pedagogical foundations for establishing an integrative e-learning environment in energy-related technical education.....	76
<b>M.O.Ismoilova</b>	
O'quvchilarida kitob mutolaasi madaniyatini shakllantirish usullari.....	81
<b>U.I.Obidjanov</b>	
Biologiya fanini o'qitishda virtual laboratoriyalarning roli va imkoniyatlari .....	85
<b>A.M.Tishabaev</b>	
1991-2005-yillarda O'zbekistonda milliy va ommaviy sport turlarining rivojlanishi.....	91



УО'К: 519.1.519.6.61.519.67

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA DIAGRAMMALAR ASOSIDA BERILGAN  
MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

**ФОРМИРОВАНИЕ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НАВЫКОВ АНАЛИЗА  
ДАННЫХ, ПРЕДСТАВЛЕННЫХ НА ОСНОВЕ ДИАГРАММ**

**FORMATION OF DATA ANALYSIS SKILLS FOR PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON  
DIAGRAMS**

Toshboyeva Saida Rahmonberdiyevna<sup>1</sup> 

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Usmonova Saboxtxon Isroiljon qizi<sup>2</sup> 

<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang'ich sindf o'quvchilarida diagrammalar asosida berilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va ko'nikmalarini shakllantirish mavzusini tushuntirish usullari aks etган. Ushbu mavzu bo'yicha boshlang'ich sindf o'quvchilarining rivojlanishidagi o'rni, tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini oshirishga oid ma'lumotlar berilgan. Xususan, diagrammalarning nazariy asoslari va tushuntirishning samarali usullari, boshlang'ich sinflarda o'qitishning dolzarbliги haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, boshlang'ich sindf o'quvchilarining yoshiga qarab qiyinlik darajasi murakkab bo'limgan diagrammalardan foydalanish kerakligi va ularning bir nechta usullari samarali tarzda yoritib berilgan. Boshlang'ich sindf 2-sinf matematika darsligida ushbu mavzu bo'yicha berilgan misol va uning tahlili, o'quvchilar mantiqiy fikrleshini, tafakkurini rivojlanishida o'rni katta ekanligi haqida so'z boradi. Maqolada bosqichma-bosqich o'qitish usullari, interaktiv metodlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Diagrammalar yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish bugungi ta'lim tizimida muhim bo'lub, maqola aynan shu jihatni o'rganishga qaratilgan. Maqolada boshlang'ich sindf o'quvchilar uchun mos keladigan diagramma turlari va ulardan foydalanish usullari berilgan. Xususan, o'quvchilar o'zi ma'lumot to'plab, diagrammalar chizishi orqali jarayonda faol ishtirok etishi ta'kidlangan. Maqola bosqichma-bosqich o'qitish usullari, interaktiv metodlardan foydalanish, diagrammalar yordamida o'quvchilar bilan ishlash bo'yicha qimmatli tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Maqola xulosasida boshlang'ich sinflarda diagrammalar bilan ishlash o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlanishiga, mustaqil xulosa chiqarishga va real hayotda qo'llashga juda katta yordam berishi haqida bayon etilgan.

**Аннотация**

В данной статье отражены методы объяснения темы анализа данных и формирования умений и навыков у младших школьников на основе диаграмм. По данной теме даны сведения о роли в развитии младших школьников, об улучшении их критического мышления, способности к логическому анализу. В частности, речь пойдет о теоретических основах построения схем и эффективных методах их объяснения, об актуальности обучения в начальных классах. Кроме того, необходимо использовать несложные диаграммы уровня сложности в зависимости от возраста учащихся начальной школы, и эффективно описаны несколько их методов. Учебник по математике для начальных классов 2 класс на примере данной темы и ее анализа говорит о том, что роль в развитии логического мышления, мышления учащихся велика. В статье представлены пошаговые методики обучения, даны рекомендации по использованию интерактивных методов. Анализ данных с помощью диаграмм важен в современной системе образования, и статья посвящена изучению именно этого аспекта. В статье приведены виды схем и способы их использования, подходящие для учащихся начальных классов. В частности, подчеркивается, что учащиеся сами принимают активное участие в процессе, собирая информацию и рисуя диаграммы. В статье содержатся ценные рекомендации по поэтапным методам обучения, использованию интерактивных методов, работе с учащимися с помощью схем. В заключении статьи говорится, что работа со схемами в начальных классах очень помогает развивать логическое мышление учащихся, делать самостоятельные выводы и применять их в реальной жизни.

**Abstract**

This article describes methods for explaining the topic of data analysis and the formation of skills in elementary school students based on diagrams. On this topic, information is provided on the role in the development of younger schoolchildren, on improving their critical thinking and logical analysis abilities. In particular, the discussion will focus on the theoretical foundations of building schemes and effective methods of explaining them, as well as the relevance of primary school education. In addition, it is necessary to use simple diagrams of the level of complexity depending on the

age of elementary school students, and several of their methods are effectively described. The textbook on mathematics for elementary grades 2nd grade, using the example of this topic and its analysis, suggests that the role in the development of logical thinking, the thinking of students is great. The article presents step-by-step teaching methods and provides recommendations on the use of interactive methods. Data analysis using diagrams is important in the modern education system, and the article is devoted to the study of this aspect. The article presents the types of schemes and ways to use them, suitable for primary school students. In particular, it is emphasized that students themselves take an active part in the process, collecting information and drawing diagrams. The article contains valuable recommendations on step-by-step teaching methods, the use of interactive methods, and working with students using diagrams. The article concludes that working with diagrams in elementary grades helps students develop logical thinking, draw independent conclusions and apply them in real life.

**Kalit so'zlar:** Diagramma, tahlil qilish, aqliy rivojlanish, metod va usullar, mantiqiy fikrlash

**Ключевые слова:** Схема, анализ, умственное развитие, методы и методы, логическое мышление

**Key words:** Diagram, analysis, mental development, methods and techniques, logical thinking.

## KIRISH

Matematika fanini dunyo ta'lif sohasiga kirib kelishga , fanning asoslarini paydo bo'lishiga katta hissa qo'shgan Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy va Mirzo Ulug'bek singari mashhur mutafakkir olimlarimizga arzigulik yosh avlodni kamol toptirish, bugungi kundagi rivojlangan zamonaviy bilimlarni o'quvchilarga yetkazish, shuningdek yurtimizda yosh avlodni matematika fanining jozibasidan bahramand bo'lishlari uchun imkoniyat yaratib berish - barchamiz uchun ham ma'suliyat, ham sharafli burch hisoblanadi. Matematika borliqni anglashning poydevori bo'lib, yon-atrofda sodir bo'layotgan voqeа va hodisalarining o'ziga xos qonuniyat va uslublarini ochib berishda hamda, yaratishda, ilm-fan va texnologiyalarining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, matematika fani inson aqlini charxlaydi, diqqatini jamlaydi va rivojlantiradi, rejalashtirilgan maqsadni qo'lga kiritush uchun shijoatni va irodani tarbiyalaydi, mantiqiy tarzda tartib-intizomlilik va ma'suliyatlilikka yo'naltiradi va eng asosiysi tafakkur bilan o'ylashga undaydi hamda mantiqiy fikrlash qobiliyatini kengaytiradi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ayтиб о'tganidek, "Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli va teran fikrlovchi bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab keta oladi".

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yangilanib borayotgan ta'lif jarayonida kelajak avlodning aqliy rivojlanish salohiyatini kengaytirish va mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf davrida o'quvchilarga xar xil ma'lumotlarni diagrammalar yordamida tasvirlash va ularni tahlil qilishga o'rgatish ularning tafakkurini o'sib borishiga juda katta yordam beradi. Avval, diagrammalarga oid biliimlar yuqori sinflarda berilgan bo'lsa, hozirgi kunda esa nashrdan chiqayotgan yangilangan muktab darsliklarida boshlang'ich davrning quyi sinflaridan boshlab, bir necha yillardan beri o'qilib kelinmoqda. Bu esa yuqorida sanab o'tgan yosh avlodning turli xil qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ro'l o'ynashi shubhasiz. Diagramma ma'lum bir miqdorlar o'rtasidagi uzviylikni chizma, rasm va shakllar bilan ya'ni grafik shaklda tasvirlash usullaridan biridir. Diagrammalar orqali ma'lum bir ma'lumotlarni tushunarli va samarali tarzda ifodalab berishga yordam beradi. Diagrammalar yordamida statistik sonli ma'lumotlarni taqqoslash, bo'lib o'tayotgan o'zgarishlarni tahlil qilish bosqichlarini o'rganishni osonlashtiradi. Diagrammalarning ilm-fan sohasida alohida ahamiyatga ega bo'lgan turli xil ko'rinishlari va har bir sohani o'rganishda muhim o'rin tutadigan turlari mavjud. Shuningdek, ulardan biri "Chiziqli diagramma", bu diagramma ko'rinishi davlatda aholi sonining yillar o'rtasida oshishi va kamayishida va ma'lumotlar yo'sinining vaqtlar o'tishi bilan qay holatda o'zgorganini ifoda etish uchun ishlatiladi, yana bir turlaridan biri "Doira diagramma", ushbu ko'rinishi umumiylar butunlik miqyosida olinadigan ma'lumotlarni qismlarga ajratish uchun ishlatilinadi. Muktab darsliklarida asosan biz sanab o'tgan diagrammalarga oid masalalar keltirilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diagrammalar yo'sinida taqdim etilgan ma'lumotlarini tadqiq qilish ko'nkmalarini paydo qilish muhim bo'lib, bu o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, mantiqiy tahlil qilish qobiliyatini oshirishda asosiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qiyin bo'lmagan diagrammalardan foydalanish ta'lif samarasini oshirishda yordam beradi.

Masalan, o'quvchilar uchun oddiy bo'lgan, rang-baranglik uyg'unlashgan, qiziqarli diagrammalardan tanlanishi kerak.

Misol uchun:

- O'quvchilarning eng ko'p fan to'garaklariga qatnashish sonini ko'rsatuvchi diagrammalar .
- Sevimli rang yoki hayvonlar sonini ko'rsatuvchi diagrammalar.

O'quvchilar diagramma uchun dastlabki ma'lumotlarni o'zлari to'plashlari va diagramma yaratish jarayonida ishtirok etishlari lozim.

Misol:

- Sinf o'quvchilarining yoqtiradigan multfilmlarini aniqlab, ularni ustun diagramma tarzida bayon etish.
- Sinfdagagi o'quvchilarning tug'ulgan kunlarini aniqlab, fasllar kesimi bo'yicha diagramma tuzish.

O'quvchilarga dastlab diagrammalarni oson misollar yordamida tanishtirish kerak. Masalan,sinfdagagi o'quvchilarning yaxshi ko'rgan bayramlari haqida ma'lumot to'plab, ularni ustunli diagramma tarzida namoyon qilishni o'rgatish. Bu jarayon ularning mantiqiy fikrlashini oshiradi va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Diagramma yordamida savollar berish orqali o'quvchilarni tahlil qilishni o'rgatishga va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan:chinor, yong'oq, archa daraxtlarining nomi va ularning uzunligi berilgan diagramma deylik, uzunliklari chinor-7m, yong'oq-4m, archa-3m. Ushbu diagramma yordamida o'quvchilarga savollar beramiz,

- O'quvchilar, diagrammada qaysi daraxtning uzunliga katta ekan?
- Barcha daraxtlarning uzunligini umumiyl miqdorini aniqlang?
- Ushbu diagrammada qaysi daraxtning uzunligi eng kichigi ekan?


kabi savollar orqali o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga katta hissa qo'shami.

Boshlang'ich sinflarda diagrammalar mavzusi haqida ma'lumotlar ikkinchi sinf matematika darsligida o'tib borilar ekan. Ikkinchi sinf matematika darsligining eski va yangi nashrini o'rganib chiqish davomida o'quvchilarning qay qarajada ushbu mavzuni o'zlashtirish darajasini o'rgandik. N.Abdurahmonova, L.O'rionboyeva tomonidan yaratilgan 2018-yil chiqqan nashrida diagramma haqida hech qanday ma'lumotlar berilmagan. Qonun va loyihalarga ko'ra, boshlang'ich sinflarda "Ilg'or xorijiy tajriba" yoki "Xalqaro standartlar" asosiga mos bo'lgan darsliklarni yaratish va chop etish bo'yicha choralar belgilangan. Ikkinchi sinf matematika darsligining 2023-yil Amerika Qo'shma Shtatlarining Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) bilan birgalikda ishlab chiqilgan nashrida esa, o'quvchilar "Jadval asosida vertikal diagramma tuzish" bobida bir qancha diagrammalar bilan tanishadilar.

Ikkinchi sinf matematika darsligida berilgan misolni olaylik:

Sharti:Vertikal diagrammadagi ma'lumotlar asosida savollarga javob bering?

- Timsoh va ayiqning umumiyl sonini aniqlang?
- Maymunlar fillardan nechta ko'p?
- Maymunlar va fillarning umumiyl sonini aniqlang?
- Fillar ayqlardan nechta kam?



Ushbu misolda o'quvchilar diagrammani tahlil qilish usuli bilan savollarga javob beradilar. Dastlab diagrammadan, hayvonot bog'iadi hayvonlar timsoh-7 ta, ayiq-8 ta, maymun-12ta, fil- 6 ta ekanligini topadilar va ba'zi savollarga matematik amallar orqali javob topadilar.

### XULOSA

Boshlang'ich sinflarda ertaroq diagrammalar bilan ishlash nafaqat o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga, balki mustaqil tahlil qila olish qobiliyatlarini shakllantirishga va xulosa chiqarishga, hayoti davomida qo'llashga juda katta yordam berishi bizning yutug'imiz ekanligi ko'rinish turibdi. Boshlang'ich davrida bola rivojlanishining eng tez paytlaridan biri b'lib, shuning uchun boshlang'ich sind darsliklaridagi mavzular va ma'lumotlar bolani ham aqlan ham jismonan yetuk shaxs bo'lib kamolotga yetaklovchi bo'lishi kerak. Yuqorida aytib o'tganimizdek, 2-sinf matematika fanining eski nashrida diagramma mavzusida to'xtalmagan, yangilanayotgan o'quv darsliklarida esa, o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi uchun yangidan-yangi mavzular, ma'lumotlar qo'shilgan. Bu albatta, O'zbekistonda ilm-fan keskin rivojlanib borayotgani haqida darak beradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi, Respublika Ta'lim Markazi.Umumiyl o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezident-ining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 21.06.2022 yildagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oly ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son qarori.
3. 2-sinf matematika darsligi N.Abdurahmonova, L.O'rinboyeva- "Toshkent yangiyo'l Poligraf servis"-2018.
4. 3-sinf matematika darsligi-Toshkent-2023.
5. Rakhmonberdiyevna, T.S. Usmonova.S.I "Simple ways to solve some problems on the topic of actions on predicates and predicates". 234-237.
6. Toshboyeva.S.R. Usmonova.S.I "Theoretical foundations of the development of creative abilities of future teachers of the third grade", 294-297.b
7. Toshboyeva.S.R. Pedagogical features of the development of creative abilities of future teachers of the third grade in the process of professional practice. 289-293b